

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALARNI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

ISSUES OF IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENTS IN FIXED CAPITAL

¹Xoshimov Sobir
Murtazayevich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD.
G-mail: sobirhosimov7@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Maqolada asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi o'рни va ahamiyati, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish hamda milliy iqtisodiyot samaradorligini ta'minlashdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik tamoyillari hamda tijorat banklari kreditlaridan foydalanish amaliyotlari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinib, mavjud muammolar aniqlangan. O'tkazilgan tahlillar asosida asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish amaliyotini yanada takomillashtirishga qaratilgan tegishli ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Eng. - In this article, the role and importance of investments in fixed capital in ensuring sustainable economic growth and increasing the efficiency of the national economy are analyzed. Particular attention is paid to the mechanisms of financing investments in fixed capital through public-private partnership principles and commercial bank lending. The article examines the current practices of financing fixed capital investments, identifies existing problems and development trends, and on the basis of a comprehensive analysis develops relevant proposals and recommendations aimed at improving the mechanisms and effectiveness of financing investments in fixed capital.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *investitsiya, asosiy kapital, infratuzilma loyihalari, modernizatsiya, investitsiya siyosati, inflyatsiya, asosiy stavka, budjet yuklamasi, asosiy fondlar.*
❖ *investment, fixed capital, infrastructure projects, modernization, investment policy, inflation, key rate, budget burden, fixed funds.*

Kirish.

Mamlakat iqtisodiyotini barqaror va jadal rivojlantirishda asosiy kapitalga investitsiyalar hal qiluvchi o'rin tutadi. Ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani rivojlantirish hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish

bevosita investisiya jarayonlarining samaradorligiga bog'liq. Shu jihatdan, asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi hozirgi bosqichda O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatda investisiya muhitini yaxshilash, xususi sektor ishtirokini

kengaytirish va moliya bozorlarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, sanoatni modernizatsiya qilish, infratuzilmani yangilash, energiya samarador texnologiyalarni joriy etish va hududlarni kompleks rivojlantirish uchun katta hajmda uzoq muddatli moliyaviy resurslarga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Zero, mamlakat prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "shu bois sanoatda "Unumdorlik va samaradorlikni ikki karra oshirish" dasturini boshlaymiz. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan mehnat unumdorligi va energiya samaradorligi bo'yicha alohida loyiha amalga oshiriladi. Ushbu loyihaga xalqaro moliya institutlaridan 200 million dollar kredit va grant jalb qilinib, sanoat korxonalari uchun xorijdan yuqori malakali texnolog va muhandislar olib kelinadi; biznes jarayonlari raqamlashtiriladi; energiya va boshqa xarajatlarni qisqartirish bo'yicha auditlar o'tkaziladi; ilg'or texnologiyalar transfer qilinadi" [1]. Davlat budjeti imkoniyatlarining cheklanganligi sharoitida investisiyalarni moliyalashtirishning yangi va samarali mexanizmlarini shakllantirish zarurati yanada kuchaymoqda. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, asosiy kapitalga investisiyalarni moliyalashtirishda tijorat banklari kreditlari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, xalqaro moliya institutlari mablag'lari hamda kapital bozori instrumentlarining o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq investisiya resurslarining yetarli emasligi, uzoq muddatli moliyalashtirish instrumentlarining cheklanganligi, kredit risklarining yuqoriligi va moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiya darajasi pastligi mazkur sohada hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Shu munosabat bilan asosiy kapitalga investisiyalarni moliyalashtirish amaliyotini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan

ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi - asosiy kapitalga investisiyalarni moliyalashtirish amaliyotini tahlil qilish, uning mavjud tendensiya va muammolarini baholash hamda mazkur sohani takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy o'sish nazariyasida investisiyalarning rolini birinchi bo'lib jahon neoklassik maktab olimlari tomonidan asoslab berilgan. R. Solou iqtisodiy o'sish modelida kapital jamg'arilishi uzoq muddatli o'sishning asosiy drayveri ekanini isbotlagan. Uning fikricha: "investisiyalarni moliyalashtirish milliy jamg'arma va moliya bozorlari rivojiga bog'liq"[2]. Ye. Domar investisiyalarning ikkilamchi ta'sirini asoslab bergan, uning fikricha: investisiyalar talabni oshiradi va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytiradi [3].

Dj.M. Keynes investisiya qarorlarida davlat siyosati va foiz stavkalari hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlagan [4]. So'nggi tadqiqotlarda investisiya moliyalashtirish institusional omillar bilan bog'lanmoqda. Demak, jahon tadqiqotlari investisiyalarni moliyalashtirishda kapital bozori, institutsional institutlar xamda innovatsiyalar asosiy rol o'ynashini ko'rsatadi.

MDH mamlakatlarida investisiya moliyalashtirish tizimi transformatsiya jarayonida o'rganilgan. Ye. Kuzmin va hammualliflar inson kapitali va investisiyalar o'rtasida kuchli bog'liqlik borligini isbotlagan [5]. Innovasion iqtisodiyot uchun davlat qo'llab-quvvatlashi muhimligi ta'kidlangan. Qozog'iston statistikasi tahlillari investisiyalarning asosiy qismi korxonalarining o'z mablag'lari hisobiga amalga oshirilishini ko'rsatadi [6]. Bu bank tizimi va kapital bozorining yetarlicha rivojlanmaganini anglatadi. MDH tadqiqotlarida asosiy muammolar: bank kreditlarining ulushining

pastligi, innovatsion moliyalashtirishdagi muammolar hamda davlat va xususiy sektor hamkorligi zaifligi va boshqalar.

O'zbekistonda investisiya moliyalashtirish mavzusi so'nggi yillarda faol o'rganilmoqda. A.Qo'shbaqov asosiy kapital investisiyalari iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlashda muhim omil ekanini ta'kidlagan [7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishi olib borish jarayonida mantiqiy fikrlash, prognozlash, sintez, tizimli yondashuv, tarkibiy va qiyosiy tahlil, iqtisodiy taqqoslash, ilmiy umumlashtirish, statistik hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish va sanoatlashuvni chuqurlashtirish uchun asosiy kapitalga katta hajmda investisiyalar talab etilmoqda. Davlat budjeti va an'anaviy bank kreditlari ushbu ehtiyojni to'liq qoplay olmasligi sababli davlat-xususiy sheriklik (DXSH) asosiy moliyalashtirish instrumentlaridan biriga aylanmoqda. Davlat-xususiy sheriklik - davlat va xususiy sektor resurslari, risklari va mas'uliyatini birlashtirgan holda investisiya loyihalarini amalga oshirish mexanizmi hisoblanadi.

O'zbekistonda transport va logistika, energetika, kommunal xizmatlar, ta'lim va tibbiyot, sanoat infratuzilmasi va boshqa sohalarida davlat-xususiy sheriklik tamoyilida infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga juda katta ehtiyoj mavjud. O'z navbatida, bunday loyihalar kapital sig'imi yuqoriligi, uzoq muddatliligi va davlat mablag'iga to'liq tayanish imkoniyatlari cheklanganligi bilan ajralib turadi. DXSH loyihalarini davlat budjeti yuklamasini kamaytirishda, xususiy investisiyalarni ko'proq jalb qilishda xamda infratuzilma qurilishini tezlashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida xususiy sektor sub'yekti

tomonidan loyihalar xususiy investorlar kapitali, tijorat banklari kreditlari, xalqaro moliya institutlari va institusional investorlar mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi mumkin. DXSHning eng katta afzalliklaridan biri: xususiy sektor orqali iqtisodiyotga yangi texnologiya va boshqaruv tajribasi krib keladi. Xususiy investorlar innovasion texnologiyalardan foydalanadi, energiya tejankor uskunalar qo'llaydi, samarali boshqaruv tizimini joriy qiladi. Bu asosiy kapital sifati va samaradorligini oshiradi.

Bu borada halqaro tajribalarni tahlil qiladigan bo'lsak, Singapurda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik munosabatlari keng qo'llanilib, yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda davlat bir tomondan kafolat taqdim etuvchi va ikkinchi tomondan bunday loyihalarga boshlang'ish mablag'lar ajratadi.

Yaponiyada hukumat va biznes hamkorligining eng keng tarqalgan shakli - xususiy moliya tashabbusi bo'lib, uning doirasida hozirda 400 dan ortiq loyiha amalga oshirilmoqda va ularning umumiy qiymati 23,5 milliard AQSh dollariga teng. Xususiy moliya tashabbusi loyihalariga aeroportlar, suv va kanalizatsiya tarmoqlari, qurilish ishlari, rekonstruktsiya va shahar magistrallarini modernizatsiya qilish kiradi. Tizimning mukammalligi shundaki, xususiy sub'yekt risklarni kamaytirgan holda o'z biznesini rivojlantiradi va sifat uchun ishlaydi. Ya'ni, yangi biznes uchun sarflanadigan xarajatlarini tejash imkoniga ega bo'lib, resurslarni sifatli xizmatni oshirishga yo'naltiradi. Mulkga egalik huquqi esa davlat zimmasida qolaveradi.

"Yevropa investitsiya banki ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida DXSH tamoyillari asosida infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda aktsiyalar hisobiga moliyalashtirish ulushi o'rtacha 12 foizni, qarz kapitali 88 foizni tashkil etgan, shundan 77 foizi bank kreditlari

hisobidan va yana 11 foizi obligatsiyalar chiqarishdan moliyalashtirilgan" [8].

Buyuk Britaniyada DXSH modelining alohida xususiyati shuki, u biznes va davlat o'rtasida hamkorlikni soddalashtirishga va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan. Model asosan quyidagilardan iborat: shartnomaning uzoq muddatga tuzilishi, infratuzilma loyihalarining barqaror moliyalashtirilishi va xizmat ko'rsatish sifatining uzoq muddatli kafolatlanishini ta'minlaydi; loyihaga bog'liq moliyaviy, texnologik va operatsion risklar sheriklar o'rtasida aniq taqsimlanadi; ko'plab DXSH loyihalarida xususiy sherik faqat sifatli xizmat ko'rsatgan taqdirda to'lov oladi; moliyalashtirishning diversifikatsiyasi qo'llaniladi; qattiq monitoring va hisobdorlik tizimi ishlaydi. Bu model, ayniqsa sog'liqni saqlash, transport va energetika sohalarida, o'z samaradorligini namoyon etgan. DXSH orqali davlat budjetiga yuk kamayadi, xususiy sektor investitsiya va texnologiyalari jalb qilinadi, infratuzilmaning uzoq muddatli ekspluatatsiyasi va texnik holati kafolatlanadi. "Buyuk Britaniya, Yaponiya, Hindiston va boshqa mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda xususiy kompaniyalar tomonidan amalga oshirilgan texnologik va boshqaruv innovatsiyalari qurilish xarajatlari va muddatlarini kamaytirgan, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilagan va xizmatlar narxini pasaytirishga xizmat qilgan. Bu o'z navbatida, davlat xizmatlarini ko'rsatuvchilarni o'z samaradorligini oshirishga undaydi va shu bilan DXSH orqali iqtisodiyotda investitsiya va innovatsiya jarayonlarini tezlashtiradi.

Ko'pgina tadqiqotchilar, shuningdek, DXSH bo'yicha loyiha muddatlari va xarajatlari an'anaviy davlat xaridlari shartnomalariga qaraganda uch-to'rt baravar past ekanligini ta'kidlaydilar" [9]. Iqtisodiy resurslar yetishmovchiligi davrida infratuzilmaga davlat investitsiyalarining yo'naltirilishi iqtisodiyotga xususiy investitsiyalarning kirib kelishini

osonlashtiradi" [10]. Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) printsiplariga asoslangan shartnomalar O'zbekistonda yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va amalga oshirishda muhim mexanizm sifatida faoliyat yuritadi. Bu shartnomalar orqali davlat va xususiy sektor o'rtasida mas'uliyat va investitsiya yuklari taqsimlanadi, natijada yo'llar, aeroportlar, elektr stantsiyalari hamda zamonaviy kasalxonalarni qurish yoki qayta rekonstruktsiya qilish imkoniyati yaratiladi. DXSH loyihalari, shuningdek, kapital sarmoyalarini samarali taqsimlash, texnologiyalarni yangilash va infratuzilmaviy obyektlarning ekspluatatsiya xarajatlarini qisqartirishga xizmat qiladi. Ushbu turdagi shartnomada xususiy operator odatda loyihani o'z hisobidan amalga oshiradi, belgilangan vaqt ichida investitsiyalarini qoplash uchun infratuzilmadan foydalanadi va keyin uni davlatga o'tkazadi.

Infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiyotda sezilarli ijobiy tashqi ta'sirlarni (positive externalities) yaratadi. Shu bilan birga, infratuzilma samaradorligi transport xarajatlari va logistikadagi sarf-xarajatlarni kamaytiradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston iqtisodiyotida asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish nuqtai-nazaridan davlat-xususiy sheriklik moliyalashtirish metodologiyasini takomillashtirish zarur, natijada investorlar uchun ishonchli muhit yaratiladi. Ushbu moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyasi bo'yicha Yaponiya va Fransiya mamlakatlari tajribalaridan kelib chiqib, uzoq muddatli moliyalashtirish bozorini rivojlantirish lozim.

DXSH loyihalari bank tizimi uchun yangi kredit bozorini yaratadi, loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantiradi, kapital bozorini faollashtiradi. Natijada, uzoq muddatli kreditlash amaliyoti shakllanadi, moliya bozori chuqurlashadi. DXSH orqali amalga oshirilgan asosiy kapital investitsiyalari natijasida qo'shimcha yangi ish o'rinlari yaratiladi, sanoat

tarmoqlari rivojlantiriladi, eksport salohiyati oshiriladi hamda hududiy rivojlanishni tezlashtiradi. Bu esa mamlakat yalpi ichki mahsuloti o'sishiga xizmat qiladi. DXSH

xususiy sektor ishtirokini kengaytiradi, tadbirkorlik faolligini rag'batlantiradi, raqobat muhitini shakllantiradi. Bu bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida muhim ahamiyatga ega.



1-jadval

O'zbekistonda DXSh loyihalari soni va umumiy qiymati [11]

Yillar	Loyihalar soni	Jami investitsiya qiymati (mlrd.AQSh dollari)	Izoh
2021	110	4	DXSH bozorining faol shakllanish bosqichi.
2022	180	5	Energetika va kommunal sohada keskin o'sish.
2023	250	9	Yashil energetika va infratuzilma loyihalari ko'paydi.
2024	300	11	DXSH davlat investitsiya siyosatining asosiy instrumentga aylandi.
2025-2030	350	30	Infratuzilma va ijtimoiy sohada portfel kengaydi.

1-jadval tahlil natijalariga ko'ra, 2021-2025-yillarda amalga oshirilgan va tayyorlanayotgan DXSH loyihalari soni qariyb 110 tadan 350 tadan ortiqqa yetgan. Bu esa besh yil davomida loyihalar sonining taxminan uch baravarga oshganini anglatadi. Mazkur dinamika davlat tomonidan xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan institusional islohotlar samarasi hisoblanadi. Shu bilan

birga, DXSH loyihalarining umumiy investitsiya qiymati ham izchil o'sib borib, 2021-yilda 4 mlrd. AQSh dollari tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-2030-yillarda 30 mlrd. AQSh dollaridan ortiq darajaga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu holat davlat budjeti imkoniyatlarini diversifikatsiya qilish va xususiy investisiyalarni jalb etishda DXSH mexanizmining samaradorligini namoyon etadi.



1-rasm. Sektorlar bo'yicha DXSH ulushi (umumiy ulushga nisbatan foiz) [12]

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2019-2024-yillarda tarmoqlar kesimida davlat-xususiy sheriklik loyihalari asosan, energetika tizimida 93 foiz bo'lib, qolgan 5 foiz kommunal xizmatlar, 1 foiz ta'lim sohasida va

yana 1 foiz boshqa sohalarida amalga oshirilgan. Kelgusida, ya'ni 2025-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklik loyihalari energetika, kommunal xizmatlar, ta'lim va transport sohalarida tengroq taqsimlanishi

rejalashtirilgan bo'lib, transport tarmog'i (33 foiz) eng katta ulushni egallaydi. Asosiy loyihalar qatoriga Toshkent-Samarqand va Toshkent-Andijon pullik yo'llari qurilishi loyihalari kiradi. Keyingi o'rinda energetika tizimi (28 foiz), kommunal xizmatlar (17 foiz), ta'lim (16 foiz)ni tashkil etadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, milliy iqtisodiyotda Davlat-xususiy sheriklik doirasida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investision loyihalarni moliyalashtirish uchun tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarni loyiha umumiy qiymatining 80 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda ajratish maqsadga muvofiqdir. Bunday taklifning iqtisodiy mohiyati quyidagi nazariy va amaliy xulosalarga tayanadi. Birinchidan, DXSH loyihalarini moliyalashtirishda bank kreditlari ulushini cheklash (risk sharing) tamoyilini ta'minlab, moliyaviy risklarni banklar, investorlar va davlat o'rtasida mutanosib taqsimlash imkonini beradi. Bu investorlarning shaxsiy kapital ishtirokini oshirish orqali loyihalarni samarali boshqarish va moliyaviy intizomni kuchaytirish imkonini beradi. Ikkinchidan, kredit ulushini 80 foiz darajasida cheklash bank tizimida uzoq muddatli kredit risklarining ortib ketishini oldini olib, kredit portfeli diversifikatsiyasi, kapital adekvatligi va likvidlik barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Uchinchidan, mazkur yondashuv xususiy sektorning DXSH loyihalaridagi ulushini oshirishga xizmat qilib, investorlarning loyihalarni samarali amalga oshirishga bo'lgan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytiradi hamda loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirib ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. To'rtinchidan, kredit yuklamasining cheklanishi davlat tomonidan beriladigan kafolatlar va kontingent majburiyatlar hajmini qisqartirish orqali davlat budjetiga tushadigan fiskal risklarni kamaytiradi.

Asosiy kapitalga investisiyalar iqtisodiyotning modernizatsiyasi, sanoatni rivojlantirish va infratuzilmani yangilashning

asosiy omili hisoblanadi. Bunday investisiyalar, odatda, katta hajmli va uzoq muddatli moliyaviy resurslarni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan tijorat banklari kreditlari asosiy kapitalni moliyalashtirishning eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, korxonalar asosiy fondlarini yangilash, modernizatsiya qilishda o'z moliyaviy resurslari taqchilligi kuzatiladi, shu sharoitda tijorat banklarining uzoq muddatli kredit mablag'lariga ehtiyoj seziladi. Iqtisodiyotda investisiya jarayonining uzluksizligini ta'minlashda bank kreditlarining o'rni muhim bo'lib, ushbu kredit resurslari evaziga korxonalar tomonidan yangi uskunalar xarid qilinishi, texnologiyalar yangilanishi va buning natijasida ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi yuz beradi. Asosiy kapitalga investisiyalarning tijorat banklari kreditlari hisobiga moliyalashtirilishi investisiya jarayonida moliyaviy nazorat mexanizmining kuchayishiga va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyasini ta'minlash imkonini beradi. Bugunki kunda, respublikamizda faoliyat olib borayotgan korxonalarda asosiy fondlar bilan bog'liq bir qancha muammolar mavjud. Uskunalarining eskirishi, texnologik ortda qolganligi, investisiya mablag'larining cheklanganligi, kredit resurslarining qimmatligi shular jumlasidandir. Bunday sharoitda kreditlashning yangi instrumentlari talab etiladi. Shundan kelib chiqib, tijorat banklari tomonidan asosiy kapitalga yo'naltirilgan investisiya loyihalarini moliyalashtirishda "Invest" va islomiy moliyalashtirish tamoyillariga asoslangan "Murobaxa" innovation investisiya kredit mahsulotlarini joriy etish orqali korxonalarda asosiy fondlarni tizimli ravishda yangilash va texnologik modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish zarur. Mazkur moliyalashtirish vositalarini amaliyotga joriy etish korxonalarining asosiy fondlarini (yangi qurilish va qayta ta'mirlash, asosiy vositalarni sotib olish) yangilashga bo'lgan uzoq muddatli moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini

qondirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va real sektorda

investision faollikni oshirishga xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar [13]

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2021	2022	2023	2024	2025
Tijorat banklari tomonidan asosiy vositalarni sotib olish, yuridik shaxslarga yangi qurilish va rekonstruksiya uchun ajratilgan kreditlar, mlrd. so'm	56115,7	56218,6	53246,5	37533,5	43510,7

1-jadval ma'lumotlari tahliliga ko'ra, tijorat banklari tomonidan asosiy vositalarni sotib olish, yuridik shaxslarga yangi qurilish va rekonstruksiya uchun ajratilgan kreditlar miqdori 2021-2024-yillar oralig'ida kamayish tendensiyasiga ega. 2025-yilda esa 2024-yilga nisbatan 15,9 foizga o'sib, 43,5 trln. so'mga yetgan. 2021-2024-yillarda tijorat banklari tomonidan investisiya kreditlarining kamayishiga quyidagilar ta'sir o'tkazgan: birinchidan, pandemiyadan keyingi ehtiyotkor kredit siyosati natijasida risk menejmenti kuchaydi, uzoq muddatli kreditlar qisqardi va likvidlikni saqlash choralari ko'rildi; ikkinchidan, yuqori inflyasiyaning saqlanishi fonida asosiy stavka ham yuqori ushlab turildi, natijada kredit foiz stavkalari ham oshgan. Bu holat korxonalarda investisiya kreditlariga talabni kamaytirishga olib kelgan; uchinchidan, 2022-yildan global geosiyosiy risklarning kuchayishi, logistika muammolarini orttirib, import uskunalar narxining oshishiga olib keldi. Natijada, biznesdagi noaniqlik va loyihalar qiymatining oshib ketishi kuzatildi; to'rtinchidan, ipoteka va iste'mol kreditlarining ko'payishi, qisqa muddatli kreditlar rolining oshishi bank kredit portfe'lini qayta tuzishga olib keldi, oxir oqibatda investisiya kreditlari ulushi kamaydi. 2024-2025-yillarda inflyasiyaning pasayish trendiga o'tishi, iqtisodiy o'sishning barqarorlashuvi va biznesga ishonchni tiklanishi, davlat investisiya siyosati faollashishi fonida sanoat modernizatsiyasi dasturlari, infratuzilma loyihalari hamda davlat-xususiy sheriklik loyihalariga e'tiborning kuchayishi natijasida

investisiya bank kreditlariga talab oshgan.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda asosiy kapitalga investisiyalarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida moliyalashtirish: investisiya manbalarini diversifikatsiya qilishda, davlat budjetiga yuklamani kamaytirishda, infratuzilmani jadal rivojlantirishda, bank va moliya bozorini rivojlantirishda xamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda katta ahamiyat kasb etgan. Shu jihatdan DXSH O'zbekiston iqtisodiyotida asosiy kapitalga investisiyalarni jalb qilishning strategik va ustuvor mexanizmi hisoblanadi. Shu o'rinda, asosiy kapitalga investisiyalarni moliyalashtirishni takomillashtirishda davlat-xususiy sheriklik va tijorat banklari kreditlari orqali moliyalashtirishni rivojlantirish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, infratuzilma loyihalarini DXSH asosida moliyalashtirishda aralash moliyalashtirishdan (davlat kafolati yoki subsidiyasi, xususiy investor kapitali va bank krediti) foydalanish.

Ikkinchidan, korporativ kreditlashdan - loyihaviy moliyalashtirishga o'tish.

Uchinchidan, loyihalarni moliyalashtirishda ichki investision salohiyatdan maksimal foydalanish.

To'rtinchidan, islomiy moliyalashtirish instrumentlarini DXSH loyihalariga joriy etish, infratuzilma va DXSH loyihalarini moliyalashtiruvchi maxsus bank tashkil etish xamda investisiya kreditlarini kapital bozori bilan bog'lash zarur. Ushbu bildirilgan taklif va

tavsiyalarni amalga oshirish kelgusida asosiy kapitalga investisiyalarni moliyalashtirishni

miqdor va sifat jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. 26.12.2025-y. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>
2. Solow, R. M. (1956). A contribution to the theory of economic growth. *Quarterly Journal of Economics*, 70(1), 65–94.
3. Domar, E. D. (1946). Capital expansion, rate of growth, and employment. *Econometrica*, 14(2), 137–147.
4. Keynes, J. M. (1936). *The General Theory of Employment, Interest and Money*. London: Macmillan. https://www.files.ethz.ch/isn/125515/1366_keynestheoryofemployment.pdf
5. Kuzmin, E., Vlasov, M., & Strielkowski, W. (2023). Human capital and investment interaction <https://arxiv.org/pdf/2312.06450>
6. Qozog'iston statistika ma'lumotlari. <https://invest.gov.kz/>
7. A. Qo'shbaqov. Asosiy kapitalga investitsiyalar samaradorligi. March 2025. Qo'qon universiteti xabarnomasi 14:61-68. <https://www.researchgate.net/publication/391882545>
8. Market Update Review of the European PPP Market in 2016 [Electronic resource] // EIB. Date of access: 14.09.2017. http://www.eib.org/epcc/resources/publications/epcc_market_update_2016_en
9. Ерошкин А., Петров М. Зарубежные тенденции финансирования инфраструктуры // Экономист. – 2015. – № 1. – С. 67–84.
10. Kessides, I. *Reforming Infrastructure: Privatization, Regulation, and Competition* [Electronic resource] / I. Kessides // Policy Research Report, World Bank. Date of access: 14.09.2017. <http://documents.worldbank.org/curated/en/709301468779183565/pdf/289850PAPERoreformingoinfrastructure.pdf>
11. Jahon banki, O'zbekiston iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi. <https://ppi.worldbank.org>, <https://www.imv.uz/>
12. Jahon banki ma'lumotlari asosida tayyorlandi. <https://ppi.worldbank.org>
13. O'zbekiston Markaziy banki ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlangan. <https://cbu.uz/oz/publications/annual-report/>